



BANK XODIMLARINING MALAKAVIY KOMPETENSIYASINI BANKNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI

*O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi Biznesni boshqarish
(Master of Business Administration-MBA) Banking 23-02-guruh magistranti
Masharipova Maksuda Amankeldiyevna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bank xodimlarining malakaviy kompetensiyasi bank moliyaviy ko'rsatkichlariga ko'rsatadigan ta'siri o'r ganiladi. Zamonaviy bank tizimida inson kapitalining o'rni va uning rentabellik, operatsion samaradorlik, kredit portfeli sifati kabi ko'rsatkichlarga ijobiy ta'siri ilmiy asosda tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari asosida xodimlar malakasini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: bank xodimi, malakaviy kompetensiya, moliyaviy ko'rsatkichlar, operatsion samaradorlik, inson kapitali, mijozlar qoniqishi.

Abstract: This article studies the impact of bank employees' professional competencies on the financial performance of banks. The role of human capital in the modern banking system and its positive influence on indicators such as profitability, operational efficiency, and the quality of the loan portfolio is analyzed on a scientific basis. Based on the research results, practical recommendations for improving employee competencies are provided.

Keywords: bank employee, professional competence, financial indicators, operational efficiency, human capital, customer satisfaction.

Аннотация: В данной статье изучается влияние профессиональной компетенции сотрудников банка на финансовые показатели банков. На научной основе анализируется роль человеческого капитала в современной банковской системе и его положительное воздействие на такие показатели, как рентабельность, операционная эффективность и качество кредитного портфеля. На основе результатов исследования даны практические рекомендации по повышению квалификации сотрудников.



Ключевые слова: банковский сотрудник, профессиональная компетенция, финансовые показатели, операционная эффективность, человеческий капитал, удовлетворенность клиентов.

Kirish

Bugungi kunda bank sektori oldida turgan asosiy vazifalardan biri – moliyaviy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlashdir. Jahon moliyaviy tizimidagi raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgani, yangi bank xizmatlari turlari paydo bo'layotgani xodimlardan yuqori malaka va kasbiy kompetensiyani talab etmoqda. Bankning moliyaviy ko'rsatkichlariga faqat tashqi omillar emas, balki ichki omillar, xususan, inson kapitalining sifati ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, bank xodimlarining malakaviy kompetensiyasini o'rganish va uning moliyaviy ko'rsatkichlarga ta'sirini tahlil qilish dolzARB masala hisoblanadi.

Tahlil va natijalar

Malakaviy kompetensiya — bu xodimning o'z kasbiy vazifalarini yuqori sifat va samaradorlik bilan bajarishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlar majmuidir. Bank sohasida bu tushuncha quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- **Kasbiy bilimlar:** moliyaviy hisobotlarni o'qish va tahlil qilish, kredit va investitsiya operatsiyalarini yuritish ko'nikmalari.
- **Texnologik kompetensiya:** raqamli texnologiyalar, onlayn bank xizmatlari va ma'lumotlarni boshqarish tizimlaridan foydalanish.
- **Muloqot va xizmat ko'rsatish ko'nikmalari:** mijozlar bilan samarali muloqot qilish, mijoz ehtiyojlarini tushunish va xizmat sifatini oshirish.
- **Risklarni boshqarish malakasi:** kredit risklari, operatsion va moliyaviy xatarlarni aniqlash va boshqarish qobiliyati.

Xodimlarning yuqori malakaviy kompetensiyasi nafaqat individual ish natijalarini, balki butun bank tashkilotining umumiyligi moliyaviy ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Bank faoliyatini baholashda bir qator asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar ishlatalidi:

- **Aktivlar rentabelligi (ROA):** Net foyda / Umumiy aktivlar.
- **Kapital rentabelligi (ROE):** Net foyda / Sof kapital.



Bu ko'rsatkichlar bankning foyda olish qobiliyatini va resurslardan foydalanish samaradorligini ko'rsatadi.

Joriy likvidlik koeffitsienti bu qisqa muddatli aktivlarlarni qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati orqali hisoblanadi. Bu bankning qisqa muddatli qarz majburiyatlarini qoplash imkoniyatini aks ettiradi.

Yomon kreditlar ulushi (NPL ratio): to'lanmagan yoki muammoli kreditlar ulushi kredit portfelida qancha ekanligini aniqlash uchun foydalaniladi.

Qoplanganlik koeffitsienti: ta'minlangan kreditlar ulushi umumiy kreditlar ichida.

Yuqori malakali kredit xodimlari orqali yomon kreditlar darajasi kamayadi.

Operatsion xarajatlar / operatsion daromadlar nisbati (CIR – Cost to Income Ratio).

Bu ko'rsatkich bankning xarajatlar va daromadlar o'rta sidagi muvozanatini ko'rsatadi. Tahlillar va amaliy tajribalar asosida aniqlanganki, malakaviy kompetensiyaning bank moliyaviy ko'rsatkichlariga ta'siri quyidagicha ifodalanadi:

Malakali xodimlar bankdagi jarayonlarni aniq va samarali bajaradi, bu esa operatsion xarajatlarning kamayishiga olib keladi. Masalan, operatsion xatoliklar kamayishi va protseduralarning soddalashtirilishi xarajatlarni qisqartiradi va moliyaviy natijalarni yaxshilaydi.

Bank xodimlarining kredit risklarini baholashdagi aniq qarorlari foydali kredit portfelin shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning yuqori sifati bank daromadlarini oshiradi.

Malakali xodimlar kreditlashda risklarni aniq baholab, yomon kreditlarning oldini oladi. Natijada bankning aktivlari sifati yuqori bo'ladi va kapital yetarliligi yaxshilanadi.

Yuqori malakali va kommunikativ xodimlar mijozlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatadi. Bu esa mijozlarning sadoqatini oshirib, bank xizmatlaridan foydalanish hajmini kengaytiradi.

Banklar xodimlarining malakaviy kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidgilarni amalga oshirishi zarur:



- Muntazam ta’lim va qayta tayyorlash dasturlarini joriy etish orqali har yili xodimlarni zamonaviy moliya va bank texnologiyalari bo‘yicha o‘qitish.
- Ichki va tashqi treninglar tashkil etish bilan yetakchi xalqaro va mahalliy mutaxassislar ishtirokida seminar va treninglar o‘tkazish.
- Motivatsiya tizimini kuchaytirish orqali Yaxshi natija ko‘rsatgan xodimlarni moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish.
- Mentorlik dasturlarini yo‘lga qo‘yish bilan Tajribali xodimlar tomonidan yosh va yangi xodimlarga amaliy bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatish.
- Innovatsion ko‘nikmalarni rivojlantirish raqamli bank xizmatlari va fintech mahsulotlar bo‘yicha maxsus treninglar o‘tkazish kabilar shular jumlasidandir.

Yil	Malaka oshirgan xodimlar ulushi (%)	Asosiy o‘zgarishlar	Bank ko‘rsatkichlariga ta’siri
2020	15–20%	Strategiyaning qabul qilinishi	Raqamlashtirish tezlashdi
2021	30%	Hududiy o‘quv dasturlari	Kredit portfeli sifati yaxshilandi
2022	45%	MHXS va raqamli texnologiyalar	Aktivlar va depozitlar o‘sdi
2023	60%	Innovatsion xizmatlar va yangi kadrlar	Daromad 12–15% ga oshdi
2024	75%	Xalqaro sertifikatlash	Operatsion samaradorlik oshdi
2025	85–90% (kutilmoqda)	Yevropa darajasidagi xizmat sifati	Sof foyda va kredit portfeli o‘sadi

2020-yil mart oyida “Bank tizimini isloh qilish strategiyasi (2020–2025)” tasdiqlandi. Xodimlarning kasbiy malakalarini oshirish dasturlari ishlab chiqildi, lekin pandemiya tufayli ko‘plab treninglar onlayn shaklda o‘tkazildi. Bank xodimlarining 15–20% i o‘quv kurslaridan o‘tdi. Bank operatsiyalarining raqamlashtirilishi tezlashdi, masofaviy xizmat ko‘rsatish kengaydi.



2021-yildan es banklarda xodimlarni tanlash va baholash tizimi kuchaytirildi.O‘zbekiston bo‘yicha 10 ta viloyatda hududiy o‘quv mashg‘ulotlari boshlandi.Bank xodimlarining 30% i malaka oshirish kurslarida qatnashdi. Kredit portfeli sifati yaxshilandi, mijozlarga xizmat ko‘rsatish standartlari oshdi.Ba’zi banklarda sof foyda 5–7% ga oshdi.

2022-yildan banklar ichida «Korporativ universitet» kabi o‘quv platformalari yo‘lga qo‘yildi. Bank xodimlari uchun MHXS (Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari) va raqamli bank amaliyoti bo‘yicha treninglar.Malaka oshirgan xodimlar ulushi 45% ga yetdi. Xizmat ko‘rsatish tezligi va sifati sezilarli darajada yaxshilandi.Bank aktivlari va depozit bazasi o‘sishi 8–10% atrofida bo‘ldi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan tahlillar va misollar shuni ko‘rsatadiki, bank xodimlarining malakaviy kompetensiyasi bankning moliyaviy ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ayniqsa, rentabellik, kredit portfeli sifati, mijozlar bazasining kengayishi va operatsion xarajatlarning kamayishi kabi muhim omillar xodimlarning bilim va ko‘nikmalariga bevosita bog‘liqdir. Shu bois banklar o‘z inson kapitaliga sarmoya kiritishi, xodimlarning malakasini doimiy oshirib borishi orqali o‘z moliyaviy barqarorligini va raqobatbardoshligini ta’minlashi lozim. Shuningdek bankning moliyaviy ko‘rstakichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi xodimlarni individual tarzda bonus va rag’batlantirish haqlarini berib boorish juda sezilarli smaraga erishishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Becker, G. S. (1993). *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. The University of Chicago Press.
2. Миров, Ю. В. (2018). *Банковский менеджмент: теория и практика*. Москва: Финансы и статистика.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari (2023-2024).
4. Robbins, S. P., & Coulter, M. (2021). *Management*. Pearson Education Limited.
5. Jahon banki hisobotlari va tavsiyalari, 2023-yil.
6. Me’yoriy-huquqiy hujjatlar



7. «O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 1995-yil 26-dekabr.
8. O'zbekiston Respublikasi «Bank va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni 1996-yil 25-aprel.
9. O'zbekiston Respublikasining «Bank siri to'g'risida»gi Qonuni 2005yil 25-aprel.